



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4/2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva</b> Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
<b>Мохигул Эркиновна Ахтамова</b> Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
<b>Бахтиёр Васиевич Насимов</b> Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
<b>Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov</b> Sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
<b>Muxabbat Sameyevna Sharipova</b> Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов</b> Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
<b>Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов</b> Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
<b>Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov</b> Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
<b>Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev</b> Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
<b>Зафаржон Яшинович Рахманов</b> Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov</b> Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
<b>Саёхат Зафаровна Зарипова</b> Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova</b> Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
<b>Ihom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Raxmonkulova</b> Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

Muxabbat Sameyevna Sharipova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi

## YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA BOSHQARUVNING STRATEGIK VAZIFALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bosqichida boshqaruvning strategik vazifalari, boshqaruv sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar tasnifi, hamda mazkur jarayonni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar va ekologik qonunchilikning o‘rni haqidagi tahlili olib borilgan. Maqolada, O‘zbekiston hukumati tomonidan iqlim o‘zgarishi va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qabul qilingan strategiyalar, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga oid qonun hujjatlari, shuningdek ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlashda xalqaro rivojlanish hamkorlarining roli ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, boshqaruv, strategik boshqaruv, barqarorlik, innovatsiya, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o‘tish.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti global miqyosda yangi qadamlarni tashlamoqda, bu esa o‘zgaruvchan sharoitlarda raqobatbardoshlikni saqlash va rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarda yashil iqtisodiyotning roli sezilarli darajada ortmoqda. Yashil iqtisodiyot deganda atrof-muhitga zarar keltirmasdan, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, barqaror rivojlanishni ta‘minlaydigan iqtisodiy model tushuniladi. Bu model iqtisodiyotning barcha sohalarida ekologik jihatlarni inobatga olishni, energiya samaradorligini oshirishni, chiqindilarni kamaytirishni va tabiiy resurslarni qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Global bozor iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotga o‘tish, ayniqsa, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoniga faol kirishmoqda. 2020-yilning oxirida O‘zbekiston hukumati «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga bag‘ishlangan turli xil tashabbuslarni e‘lon qildi. Bu tashabbuslar energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirishga qaratilgan. O‘zbekistonning «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tishdagi asosiy maqsadi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash, atrof-muhitni himoya qilish va ekologik xavfsizlikni oshirishdir. Shu maqsadda, davlatning iqtisodiy siyosatida energiya tejash texnologiyalarini rivojlantirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va ekologik infrastrukturani modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi yondashuvi nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki iqtisodiy o‘tishni barqarorlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga ham qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida boshqaruvning strategik roli juda katta, chunki bu jarayon mamlakatning iqtisodiy va ekologik muvozanatini ta‘minlashda, yangi texnologiyalarni joriy etishda va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston hukumati bu yo‘lda boshqaruvning zamonaviy uslublarini va ilg‘or strategiyalarni joriy etishga intilmoqda. Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori ham hukumat tomonidan bu mavzuga e‘tibor qaratilayotgani va mavzu tadqiq etilish uchun dolzarb ekanini bildiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mavzuda xorijiy olimlardan Jahon banki tadqiqot guruhi [5], Daly H. E. [6], Pearce D, Markandya, A., & Barbier, E. B [7], Stern N [8], Jackson, T [9] kabilar tadqiqot olib borayotgan bo‘lsa, yurtimiz olimlaridan Abduvohidov X [11], Islomov I [12], Toshpo‘latova M [13], Yo‘ldoshev S [14], Karimova Z [15] kabilar mavzuning ahamiyati haqida o‘z tadqiqotlarida takidlashmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Maqolada boshqaruv amaliyotida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari ahamiyatini yoritish jarayonida analiz sintez,

mantiqiy yondashuv, guruhlashtirish va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Globallashtirish davrida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi misli ko‘rilmagan darajada dolzarb bo‘lib bormoqda. Savdo, texnologiya va ekologik muammolarning o‘zaro bog‘liq ekanligi global siyosiy kun tartibini belgilab beradi. Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishni davom ettirar ekan, o‘shini barqarorlik bilan muvozanatlashtirish zamonamizning eng muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu o‘tish jarayoni nafaqat kuchayib borayotgan ekologik inqirozlarga javobdir, balki resurslarni adolatli taqsimlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun zaruratdir. Globallashtirish, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirib, resurslardan foydalanish va karbonat angidrid chiqindilarining keskin ortishiga olib kelmoqda. Natijada, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va resurslarning kamayishi inson farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu sharoitda yashil iqtisodiyotga o‘tish bu muammolarga samarali echim sifatida e‘tirof etilmoqda. Quyosh energiyasi, barqaror qishloq xo‘jaligi va resurslarni samarali boshqarishni targ‘ib qilish orqali yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘shini ekologik muvozanat bilan uyg‘unlashtiradi. Bundan tashqari, globallashtirish tufayli yuzaga kelgan o‘zaro bog‘liqlik ekologik muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Bir mamlakatning harakati butun dunyo bo‘ylab sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, shu sababli, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik masalalarni hal qilishda, balki globallashtirish imkoniyatlarini ishga solib, yashil ish o‘rinlari yaratishda, innovatsiyalarni rivojlantirishda va toza texnologiyalarga kirishni ta‘minlash orqali tengsizliklarni kamaytirishda ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotga o‘tishni milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagan. Bu borada davlat darajasida qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan tashabbuslar mamlakatning barqaror rivojlanishga bo‘lgan intilishidan dalolat beradi.

2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori ushbu yo‘nalishning huquqiy asosini yaratdi. Ushbu strategiya mamlakat iqtisodiyotini ekologik barqarorlik prinsiplari asosida modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi. Strategiyada qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish, suv va er resurslaridan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni oshirish kabi maqsadlar belgilangan.

Bundan tashqari, 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinishi hukumatning ekologik muammolarga e‘tiborini yanada kuchaytirganligini ko‘rsatadi. Bu tashabbus milliy miqyosda ekologik madaniyatni oshirish, yashil texnologiyalarni joriy qilish va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yilda turli davlat dasturlari va loyihalari orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shu tariqa, O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotga o‘tishni iqtisodiy o‘shish va ekologik muhofazani birlashtirishning muhim vositasi sifatida ko‘rib, bu yo‘nalishda kompleks siyosiy va strategik yondashuvni amalga oshirmoqda. O‘zbekistonning “2019–2030-yillar uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” bu yo‘nalishdagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu strategiyada quyidagi asosiy ustuvorliklar belgilangan:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish: Mamlakatda quyosh va shamol energiyasi imkoniyatlarini samarali ishlatish uchun katta salohiyat mavjud. 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish maqsad qilingan. Shu maqsadda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda.
- Energiya samaradorligini oshirish: Sanoat, transport va uy-joy sektorlarida energiyani tejash texnologiyalarini joriy qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiyotning energiya sarfini kamaytirib, ekologik izni qisqartirishga xizmat qiladi.
- Suv resurslaridan samarali foydalanish: Qishloq xo‘jaligida zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, suvning yo‘qotilishini kamaytirish va suv resurslarini boshqarishning ilg‘or usullarini qo‘llash strategiyaning muhim qismidir.

- Ekologik barqarorlikni ta'minlash: Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha qonunchilikni kuchaytirish, chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bu strategik yo'nalishlar O'zbekistonning iqtisodiyotini ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan kompleks choralarini aks ettiradi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot bo'yicha qabul qilinayotgan tashabbuslar mamlakatning xalqaro hamjamiyat oldidagi mas'uliyatini namoyon qiladi va global ekologik maqsadlarga hissa qo'shadi.<sup>1</sup>

Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat atrof-muhitni himoya qilishni, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni yangi darajaga ko'tarishni ham ko'zda tutadi. Bu model iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni birlashtirish orqali uzoq muddatli manfaatlarni ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan, yashil iqtisodiyot yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsiyalarni rag'batlantirish imkonini beradi. Qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish, ekologik qishloq xo'jaligi kabi sohalarning rivojlanishi iqtisodiyotning yangi segmentlarini shakllantiradi. Bu esa mamlakatlar uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirib, global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshiradi. Ekologik jihatdan, yashil iqtisodiyot iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni ifloslantirishga qarshi kurashishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy ekotizimlarni himoya qilish yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu esa ekologik xavflarni kamaytirib, atrof-muhitni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini beradi. Ijtimoiy o'sish nuqtai nazaridan, yashil iqtisodiyot ijtimoiy tenglikni oshirish va aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Toza energiyaga kirish imkoniyatining oshishi, sog'lom turmush tarzi uchun sharoitlar yaratish va ekologik madaniyatni rivojlantirish jamiyatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot qashshoqlikni kamaytirish va zaif qatlamlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.<sup>2</sup>

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlat boshqaruvi moliyaviy, texnologik va inson kapitalini samarali safarbar qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashda asosiy vositachi sifatida harakat qiladi. Ushbu resurslarni strategik boshqarish ekologik muammolarni hal qilish va yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy resurslarni safarbar etish: Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat tomonidan byudjet mablag'lari va xalqaro grantlardan foydalanilmoqda. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun moliyaviy mexanizmlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, yashil obligatsiyalar chiqarish va xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish orqali moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilinmoqda.

Texnologik resurslarni safarbar etish: Innovatsion texnologiyalar yashil iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi texnologik yangiliklarni rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlash dasturlari va rag'batlantiruvchi siyosatni amalga oshiradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish va suv resurslarini boshqarishdagi ilg'or tizimlarni tatbiq etish bunday tashabbuslarning asosiy yo'nalishlaridir.

Inson kapitalini rivojlantirish: Yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun malakali va ekologik ongli inson kapitali talab etiladi. Davlat tomonidan ekologik ta'limni rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish choralari ko'rilmoqda. Maxsus o'quv dasturlari orqali yangi texnologiyalarni boshqarish va yashil iqtisodiyot sohasida yangi kasb-hunarlarini egallashga imkon beruvchi malaka oshirish tizimlari joriy etilmoqda. Bu yo'nalishlar davlat boshqaruvi tizimining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi strategik rolini namoyon qiladi. Moliyaviy, texnologik va inson kapitalini samarali boshqarish orqali davlat iqtisodiy barqarorlik, ekologik

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori // <https://lex.uz>

<sup>2</sup> United Nations. (2015). "Paris Agreement: United Nations Framework Convention on Climate Change." United Nations, New York.


muvozanat va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Yashil texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish. Yashil iqtisodiyotga o’tish jarayonida texnologiyalarni joriy etish va ularning rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil texnologiyalar – bu resurslardan samarali foydalanish, ekologik izni qisqartirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga yo’naltirilgan innovatsion echimlar majmuasidir. Bu texnologiyalar sanoat, energetika, transport va qishloq xo’jaligi kabi sohalarni modernizatsiya qilishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Avvalo, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish yashil texnologiyalarning eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Quyosh, shamol, biomassa va gidroenergetika texnologiyalari atrof-muhitni himoya qilish bilan birga energiya ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.<sup>1</sup>

O’zbekiston misolida, quyosh energiyasi sohasidagi texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay iqlimiy sharoitlardan keng foydalanish rejalashtirilmoqda. Mamlakatda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi bunga misoldir. Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyalarining rivoji ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim qismi hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar orqali chiqindilarni ikkilamchi resurslarga aylantirish nafaqat chiqindilarni kamaytiradi, balki iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini shakllantirishga imkon beradi.

O’zbekiston hukumati va Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) kabi xalqaro rivojlanish hamkorlari O’zbekistondagi bir qancha o’rta shaharlarning “yashil” iqtisodiyotga o’tish borasidagi sa’y-harakatlarini, jumladan, binolarni modernizatsiya qilish, yashil maydonlar, jamoat transporti, shahar suv va energetika infratuzilmasini qo’llab-quvvatlashmoqda. Bu ish, shuningdek, muhim milliy darajadagi islohotlarni qo’llab-quvvatlashni o’z ichiga oladi:

yerlarni xususiylashtirish, shaharsozlik tizimini isloh qilish, mahalliy hokimiyatlarni mustahkamlash va boshqalar. Bularni quyidagi rasm orqali ko’rish mumkin.



1-rasm. Yerlarni xususiylashtirish va shaharsozlik tizimi<sup>2</sup>

Ushbu rasmda O’zbekiston hukumati va xalqaro rivojlanish hamkorlari tomonidan amalga oshirilayotgan “yashil” iqtisodiyotga o’tish borasidagi sa’y-harakatlar aks etgan. O’zbekistonning bir qancha o’rta shaharlarida amalga oshirilayotgan ushbu tashabbuslar, jumladan, binolarni modernizatsiya qilish, yashil maydonlarni yaratish, jamoat transportini rivojlantirish, shahar suv va energetika infratuzilmasini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> World Bank. (2020). "The Role of Digital Innovation in Service Sectors." World Bank Annual Report.

<sup>2</sup> “O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O’zbekistonda “Yashil” O’sish va Iqlim O’zgarishi bo’yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To’plami. Jahon banki: Washington D.C.” // <https://documents1.worldbank.org/>

<sup>3</sup> <https://documents1.worldbank.org/>

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshqaruvning turli sohalarini talab etadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ekologik, moliyaviy, huquqiy, texnologik, ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy boshqaruvni integratsiyalashgan holda boshqarish zarur. Har bir boshqaruv sohasi o'zining alohida vazifalariga ega bo'lib, ular yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining samarali amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi. Quyida, boshqaruvning strategik vazifalari va ularning tasnifi keltirilgan.

1-jadval

**“Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari va ularning tasnifi**

Boshqaruv Sohasi	Boshqaruv Sohasi
Ekologik boshqaruv	- Yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. - Ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.
Moliyaviy boshqaruv	- Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish. - “Yashil” byudjetlarni shakllantirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash.
Huquqiy boshqaruv	- Yashil iqtisodiyotga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish. - Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarni tartibga soluvchi qonunchilikni amalga oshirish.
Texnologik boshqaruv	- Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni rag'batlantirish. - Raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish.
Ijtimoiy boshqaruv	- Aholi va biznesni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ishtirok etishga rag'batlantirish. - Ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish.
Tashkiliy boshqaruv	- Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida idoralararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish. - Raqamli va ekologik boshqaruv tizimlarini yaratish
Siyosiy boshqaruv	- Yashil iqtisodiyotga o'tishning davlat siyosatiga kiritilishi. - Mamlakatlararo hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan strategik kelishuvlar o'rnatish.

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari va ularning tasnifi mamlakatlarning ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jadvalda ko'rsatilgan vazifalar, har bir boshqaruv sohasi doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniq belgilaydi va yashil iqtisodiyotga o'tishning turli bosqichlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy faoliyatlarni ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida bir nechta strategik yo'nalishlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal etishga yo'naltirilgan strategik rejalarini ishlab chiqish dolzarbdir. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy tizimning ekologik jihatdan qulay shaklini yaratishga qaratilgan aniq harakatlar rejalashtirilishi lozim. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, mazkur muammolarni hal etish orqali sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

Shu bilan birga, moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ekotizimlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni to'g'ri taqsimlash ushbu maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, huquqiy asoslarni mustahkamlash alohida e'tiborni talab etadi. Iqlim o'zgarishiga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish va iqtisodiyotning ekologik jihatlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni joriy etish huquqiy barqarorlikni ta'minlab, hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Texnologik rivojlanish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi yashil iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirishga imkon beruvchi yashil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ularni raqamli echimlar bilan uyg'unlashtirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy boshqaruv doirasida aholining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi faolligini oshirish, ekologik ta'limni rivojlantirish va ekologik ongini shakllantirish muhim. Aholiga yashil texnologiyalar va energiya samaradorligi haqidagi bilimlarni etkazish ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nihoyat, tashkiliy boshqaruvni kuchaytirish, idoralararo muvofiqlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining barcha bosqichlarida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi siyosiy boshqaruvning roli ham muhimdir. Mamlakatlararo hamkorlik, xalqaro tashkilotlar bilan strategik kelishuvlar o'rnatish, shuningdek, davlat siyosatiga yashil iqtisodiyotga o'tishni kiritish orqali davlatlar o'rtasida ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'zaro qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

Shunday qilib, yuqoridagi jadvalda keltirilgan vazifalar boshqaruvning har bir sohasida o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun barcha sohalarida hamkorlik va strategik rejalashtirish zarur. Bu esa ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini samarali amalga oshirish uchun iqlim o'zgarishi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik audit kabi masalalar bo'yicha tegishli qonunlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash lozim. Bu, xususiy sektor va davlat organlari o'rtasida huquqiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir;

- texnologik rivojlanish va raqamli infrastrukturani qo'llab-quvvatlash. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan infratuzilma yaratish muhim. Bu, tabiiy resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish orqali yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi;

- moliyaviy resurslarni jalb qilish va samarali taqsimlash. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilish va ularni to'g'ri taqsimlash maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasida kuchli hamkorlikni rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ekologik loyiha va texnologiyalarni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlar bilan kelishuvlarni kuchaytirish lozim;

- ijtimoiy ta'lim va xabardorlikni oshirish. Aholining ekologik ongini oshirish, yashil texnologiyalar va energiya samaradorligi bo'yicha bilimlarni kengaytirish, shuningdek, ijtimoiy boshqaruvda aholining faolligini rag'batlantirish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini keng ommalashtirish zarur;

- shaharsozlik tizimini isloh qilish va infrastruktura modernizatsiyasini amalga oshirish muhim. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida shaharsozlik tizimi va infratuzilmani modernizatsiya qilish, yashil maydonlarni yaratish, jamoat transportini rivojlantirish va suv-ta'minoti tizimini yaxshilashni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Yuqoridagi takliflar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori // <https://lex.uz>
2. “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda “Yashil” O‘sish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. Jahon banki: Washington D.C.” // <https://documents1.worldbank.org/>
3. United Nations. (2015). "Paris Agreement: United Nations Framework Convention on Climate Change." United Nations, New York.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. (2021). "O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi strategik maqsadlar." O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Tashkent.
5. World Bank. (2020). "The Role of Digital Innovation in Service Sectors." World Bank Annual Report.
6. Daly H. E. (1996). Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development — Beacon Press.
7. Pearce D., Markandya A., & Barbier E. B. (1989). Blueprint for a Green Economy — Earthscan Publications Ltd.
8. Stern N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review — Cambridge University Press.
9. Jackson T. (2009). Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet — Earthscan Publications Ltd.
10. Meadows D. H., Randers J., & Meadows, D. L. (2004). Limits to Growth: The 30-Year Update — Chelsea Green Publishing.
11. Abduvohidov X. "Yashil iqtisodiyot: muammolar va imkoniyatlar". O‘zbekiston iqtisodiyoti va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2021. 82-90 b.
12. Islomov I. "O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning strategik bosqichlari". Iqtisodiyot va boshqaruv, 2020. 143-151 b.
13. Toshpo‘latova M. "Yashil iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishdagi ahamiyati". Milliy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish, 2019. 516-524 b.
14. Yo‘ldoshev S. "O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish tajribasi". Mintaqaviy iqtisodiyot masalalar, 2022. 301-309 b.
15. Karimova Z. "Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot omillari". Innovatsion iqtisodiyot va boshqaruv jurnali, 2023. №7. 920-931 b.

<p><b>М.Шарипова</b></p> <p><b>Стратегические задачи управления в процессе перехода к зелёной экономике</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В этой статье проведен анализ стратегических задач управления на этапе перехода Узбекистана к «зеленой» экономике, классификации задач, которые необходимо реализовать в сфере управления, а также роли цифровых технологий и экологического законодательства в осуществлении этого процесса. В статье рассматриваются принятые правительством Узбекистана стратегии по борьбе с изменением климата и переходу к «зеленой» экономике, включая законодательство о возобновляемых источниках энергии, а также роль международных партнеров по развитию и поддержке этого процесса.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> зеленая экономика, управление, стратегическое управление, устойчивость, инновации, экологическая устойчивость, экономический рост.</p>	<p><b>M.Sharipova</b></p> <p><b>Strategic tasks of management in the transition to a green economy</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the strategic management challenges during Uzbekistan's transition to a “green” economy, classifies the tasks that need to be implemented in the management sphere, and examines the role of digital technologies and environmental legislation in facilitating this process. The study explores the strategies adopted by the Uzbekistan government to combat climate change and transition to a “green” economy, including legislation on renewable energy sources, as well as the role of international development partners in supporting this initiative.</p> <p><b>Keywords:</b> green economy, management, strategic management, sustainability, innovation, environmental sustainability, economic growth.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.